

ILK O'SPIRINLIK VA YOSHLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Mirzaqosimova Marjona Qodirjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Vahabova O'g'ilxon Tolibjonovna

*Andijon davlat pedagogika instituti „Pedagogika va psixologiya“ kafedrası v/b
dotsenti psixologiya fanlari doktori*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ilk o'spirinlik va yoshlik davrida sodir bo'ladigan psixik rivojlanishning asosiy bosqichlari, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Shuningdek mazkur maqolada o'smirlik va yoshlik davrlarida psixik rivojlanishning xususiyatlari tahlil qilinadi, bu davrlarda yuzaga keladigan o'zgarishlar, emotsional va ijtimoiy jarayonlar, shuningdek, yoshlar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ko'rib chiqiladi.*

Abstract: *This article analyzes the main stages of psychological development, personal and social characteristics that occur during early adolescence and youth from a scientific perspective. This article also analyzes the characteristics of psychological development during adolescence and youth, examines the changes, emotional and social processes that occur during these periods, as well as the main factors affecting the development of youth.*

Аннотация: *В статье с научной точки зрения анализируются основные этапы психологического развития, личностные и социальные характеристики, возникающие в раннем подростковом и юношеском возрасте. В статье также анализируются особенности психологического развития в подростковом и юношеском возрасте, рассматриваются изменения, эмоциональные и социальные процессы, происходящие в эти периоды, а также основные факторы, влияющие на развитие молодежи..*

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, Yoshlik davri, Psixik rivojlanish, Emotsional jarayonlar, Ijtimoiy jarayonlar, Shaxsiyat shakllanishi, Mustaqillik, O'zini anglash, Kognitiv rivojlanish, Oila va jamiyat, Rivojlanish omillari, Shaxsiy maqsadlar, Psixologik o'zgarishlar.

Keywords: Adolescence, Youth, Psychological development, Emotional processes, social processes, Personality formation, Independence, Self-awareness, Cognitive development, Family and society, Developmental factors, Personal goals, psychological changes.

Ключевые слова: Подростковый возраст, Молодежь, Психическое развитие, Эмоциональные процессы, Социальные процессы, Формирование личности, Независимость, Осознание себя, Когнитивное развитие, Семья и общество, Факторы развития, Личные цели, Психологические изменения.

Inson hayotining har bir bosqichi o'ziga xos fiziologik, ijtimoiy va psixik jihatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'spirinlik va yoshlik davri inson shaxsining shakllanishi va barqaror psixik holatga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixik rivojlanishning o'ziga xosxususiyatlari o'smirlik va yoshlik davrlarida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Ushbu davrlar insonning jismoniy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy o'zgarishlar jarayonining eng faol bosqichlari hisoblanadi. Bu davrda shaxs ongining o'sishi, mustaqil fikrlashga bo'lgan ehtiyoj, identitet shakllanishi va ijtimoiylashuv jarayoni faol kechadi.

O'smirlik davri (12-18 yosh) va yoshlik davri (18-25 yosh) psixik rivojlanishning muhim bosqichlaridan biridir. Har ikkala davrda ham individning psixologik, ijtimoiy va emotsional jihatlari o'zgaradi.¹ Ilk o'spirinlik 1. Jismoniy o'zgarishlar: Barcha o'zgarishlar (xususan, jinsiy rivojlanish) o'smirning o'zini anglashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda o'zini kashf qilish, tana va tashqi ko'rinishdagi o'zgarishlarga nisbatan tashvish va ishonchsizliklar ko'payadi. 2. Kognitiv rivojlanish: O'smirlikda tafakkur darajasi ancha

¹ Xaydarov.F.I, Xalilova. N.I "Umumiy psihologiya" Toshkent-2010y

rivojlanadi.²

Ilk o'spirinlik davri psixik rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz. Bu bosqichda bolaning tanasida keskin fiziologik o'zgarishlar sodir bo'ladi, bu esa bevosita uning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Yangi emotsional holatlar, ichki ziddiyatlar, o'ziga xoslikni izlash tendensiyalari yuzaga chiqadi. Mustaqillikka, qarorlar qabul qilishga bo'lgan qiziqish ortadi. Tengdoshlar fikriga yuqori baho beriladi. Avtoritetlarga nisbatan tanqidiy munosabat paydo bo'ladi.³Yoshlikda shaxsiyat va his-tuyg'ularni boshqarish yanada aniqroq va barqaror bo'ladi. Yoshlikning boshida turli stress va tashvishlarga duch kelinishi mumkin, lekin yoshlar o'z his-tuyg'ularini boshqarishda ko'proq malakaga ega bo'ladilar. O'zining his-tuyg'ulariga, hayotdagi qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo'lishni o'rganish, emosional barqarorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bolaning "men" konsepsiyasi shakllana boshlaydi. Bu holat shaxs taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yoshlik davrining psixologik xususiyatlari : Yoshlik —shaxsning mustaqil fikrlashi, hayotiy yo'lini tanlashi, ijtimoiy faollik darajasi oshishiga bevosita ta'sir qiluvchi bosqichdir.⁴

Yoshlik davridagi asosiy psixik jihatlar: Hayotiy maqsadlar va qadriyatlarning shakllanishi; Ijtimoiy roldan xabardorlik va kasb tanlashga intilish; Mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan layoqatning ortishi; Romantik his-tuyg'ularning rivojlanishi va shaxslararo munosabatlar chuqurlashuvi kabilar kiradi. Yoshlik davri esa o'zining mustaqil fikrlashini, shaxsiy maqsadlarni va o'z-o'zini anglashni aniqroq shakllantiradigan davrdir. Bu davrda ijtimoiy va kasbiy rivojlanishning yangi bosqichlari boshlanadi, hamda o'z kelajagi va hayot yo'li haqida aniqroq qarorlar qabul qilinadi. Shunday qilib, o'smirlik va yoshlik davrlari inson psixikasining shakllanishidagi muhim bosqichlar bo'lib, ularning psixologik rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar va o'zgarishlar mavjud. Yoshlik – insonning

² Karimova V.M. Psixologiya T-2002y

³ G'oziyev E.G' Umumiy Psixologiya 1-2 kitob T-2002y

⁴ Ivanov.P, Zufarova.M "Umumiy Psixologiya" T-2008y.

o'z salohiyatini to'liq anglay boshlaydigan davr bo'lib, bu bosqichda ruhiy barqarorlik muhim omil hisoblanadi. Oila, maktab, tengdoshlar va axborot manbalari (internet, media) yoshlarning psixik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aksar hollarda salbiy omillar, masalan, noto'g'ri tarbiya, e'tiborsizlik, kuchli nazorat yoki haddan tashqari erkinlik ularning psixikasida beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Tarbiya jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim: Ochiq va samimiy muloqotni yo'lga qo'yish; Har bir yoshning individual psixik xususiyatini inobatga olish; Ijobiy rol modellari orqali o'ziga ishonchni shakllantirish.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ilk o'spirinlik va yoshlik davri inson hayotining eng muhim, murakkab, ammo sarmahsul bosqichlaridan biridir. Bu davrda psixik rivojlanish intensiv kechib, shaxsning jamiyatda egallaydigan o'rni belgilanadi. Shu sababli ota-onalar, pedagoglar va jamiyat vakillari bu bosqichdagi yoshlar bilan ongli, psixologik asoslangan va ijobiy munosabatni shakllantirishlari muhimdir. Bu esa sog'lom, aqliy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Inson psixikasi rivojlanishida har bir yosh bosqichining o'ziga xos funksiyalari mavjud.

O'smirlik va yoshlik davrlaridagi psixik rivojlanish o'zining maxsus xususiyatlari bilan ajralib turadi. O'smirlik davrida shaxs o'zini tanishga, emotsional va jismoniy o'zgarishlarga, ijtimoiy guruhlarga qiziqishga intiladi, bu esa ba'zan ichki qarama-qarshiliklar va izlanishlarga olib keladi. Yoshlik esa mustaqillik, kasbiy yo'nalish, oila va ijtimoiy munosabatlar o'rnatishga, hayotiy qarorlar qabul qilishga va shaxsiyatni shakllantirishga asoslanadi. Har ikki davrda ham psixologik o'zgarishlar, hayotning turli jabhalarida yangi boshlang'ichlar va qiyinchiliklarga duch kelinadi. Shaxsning rivojlanishida oila, jamiyat, va ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaydarov.F.I, Xalilova. N.I “Umumiy psixologiya” Toshkent-2010y
2. Karimova V.M. Psixologiya T-2002y.
3. G'oziyev E.G' Umumiy Psixologiya 1-2 kitob T-2002y
4. Davletshin M.G Umumiy Psixologiya T-2002y
5. Ivanov.P, Zufarova.M “Umumiy Psixologiya” T-2008y.
6. Tojiboyeva G. R. et al. TURLI RAHBARLIK USLUBLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 16. – №. 1. – C. 114-117.
7. Rahmanzhanovna T. G. SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF CONFLICT SITUATIONS IN THE TEACHING STAFF //World Bulletin of Social Sciences. – 2024. – T. 31. – C. 30-32.
8. Таджибаева Г. Р. ПРИЧИНЫ И ПУТИ РАЗРЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. –2021. – Т. 4. – №. 3.
9. Zokirova, M. (2020). Psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
10. Xolmatova, M. (2021). Yosh davrlari psixologiyasi. Andijon: AndDU nashriyoti.